

## **AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA UNING YURTIMIZDA RIVOJLANISHI.**

**Tashboyeva Mahliyo Shuxrat qizi.**

*Gidrometeorologiya tehnikumi mahsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot texnologiyalari, ularning paydo bo'lishi va ahamiyati hamda uning yurtimizdagi istiqboli borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Texnologiya, AKT, axborot texnologiyasi, axborot-kommunikatsiya, insoniyat, globallashuv.

Hozirgi vaqtida yangi texnologiyalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) taraqqiyoti bilan birgalikda rivoji masofa va vaqt oralig'iqa qaramay axborot, pul va boshqa resurslarni tez yetkazib berish, almashish uchun imkoniyat yaratmoqda. Axborotlashgan iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq sodir bo'layotgan chuqur va tub o'zgarishlar bir qator muammo va ziddiyatlarga olib kelmoqda. Bunday muammolarga jamiyat faoliyatidagi turli sohalarga oid globallashuv va axborotlashtirish tufayli paydo bo'lgan hamda har tomonlama o'rganish va yechimi kompleks yondashuvni talab etuvchi iqtisodiy hayotning o'zgaruvchanligi va beqarorligini kiritish mumkin bo'ladi. Bulardan ta'lim, AKT, ilmiy va innovatsion faoliyat turlarining jamiyat, davlat va iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirining kuchayishi hamda ular faoliyat yuritishining sifat jihatdan yangi xususiyatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi jamiyat hayotidagi ziddiyatlarga qanday ta'rif berishi hamda uning nazariy jihatdan mazmun-mohiyati jahon iqtisodiyotining hozirgi zamon bosqichida o'z aksini qanday topayotganligi va axborotlashgan iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatib bermoq hozirgi kunda o'ta muhim masalalardan biridir.

Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rinni egallamoqda. Axborot texnologiyalari industriyasi majmuuni kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog'liq faoliyat soxalari tashkil qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda "saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi" turlarga ajratish

mumkin. Birinchi turdagি texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtни tejaydi. Ratsionalallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi. Yaratuvchi (ijodiy) axborot texnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladigan tizimlardan iborat. Axborot texnologiyalarining xozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fantexnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi. Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabhalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan bog'lik ob'yektiv jarayon xisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy extiyojlarning qondirilishiga, iqtisodning o'sishi hamda fan-texnika taraqqiyotining jadallahishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston boshqa davlatlar bilan munosabatlарини va do'stona aloqalarini o'rnatshiga kirishdi. Mustaqillikdan so'ng respublikamizda axborot texnologiyalariga katta e'tibor berildi. Jahoning ko'plab mamalakatlari zamonaviy kompyuterlarga va ularni yoshlarga bevosita o'rgatishga kirishdi. Yangi axborot texnologiyalari rivojlanishiga ko'plab mamlakatlar katta e'tibor berildi va har xil festival, musobaqa, tanlovlар qilindi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham bunday ishlarga befarq qaralmayapti. Bunga misol, 2000 yil mart oyida vatanimizda birinchi marta Internet festivali bo'lib o'tdi. Festival 15 turdagи yo'naliшlardan iborat bo'ldi. Shular qatori, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar haqida yo'naliшlар mavjud. Bu diyormizda axborot texnologiyalariga talab va e'tibor kuchli ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda axborot texnologiyalarining rivojlanishtrish ishlari olib borilmoqda. Eng katta yutuq bu O'zbekistonda milliy kompyuter tarmoqlarining shakllanishidir va u orqali axborot almashinish mumkin.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagи kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda o'quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish lozim. Zamonaviy texnologiyalar

Internet tarmoqlarida ta'limga yo'naltirilgan turli hil saytlar kanallarni uchratish hozirgi kunda juda keng tarqalib bormoqda. Bu albatta quvonarli holat yoshlarning savodhonligi ortib borishida, zamon bilan hamnafaslikda, rivojlangan davlatlar bilan fikr almashishda juda katta imkoniyatlar yaratib beradi. XXI asr talabi ham aynan shunday imkoniyatlardan to'g'ri va keng foydalanishdir. Bugungi kunda hayotimizni osonlashtiradigan bu vositalardan har bir sohada to'g'ri va imkoniyatlardan maksimal darajada keng foydalanish shu sohaning rivojiga albatta katta imkoniyatlarni yaratib beradi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yo`nalishga ajratish mumkin:

- Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomotlashtirish.
- Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarishni axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iqtisodiy boshqarishni axborotlashtirish.
- Aholiga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish
- Ta`lim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

Yurtboshimiz ham yoshlarga katta e'tibor berib, ularga katta imkoniyatlar yaratib qo'ydi. Biz hamma ta'lim muassalarda, instit, universitetlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini ko'rishimiz mumkin. Yoshlarga eng katta imkoniyat chet elga borib o'qish imkoniyati berildi. Mana Rossiya, AQSH, Yaponiya, Angliya, Germaniya, Malaziya, Koreya xullas dunyoning ko'plab mamlakatlariga borib o'qib ta'lim olishlari mumkin. U yerdarda o'qib sehrli diyorimizga qaytib, yaxshi malakali mutaxssis bolib yetishib, davlatimizga kerakli inson bo'lib yetishlari shart. Mamlakatimiz axborot texnologiya mutaxassislari chet ellik IT-mutaxassislari bilan fikr almashib O'zbekistonga foya keltirishlari kerak. Vatanimizda axborot texnologiyalarini o'zimiz ishlab chiqarib, mamlakatimizda birinchi o'rinda shu ishlarni yo'lga qo'yishimiz lozim. Albatta bu oson kechmaydi, ammo ishmi bu ish, hamma ish ham oson emas. Ularni amalga oshirishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinadi, biroq shunday qiyinchiliklarni yengan inson haqiqiy inson bo'ladi-da. Kompyuterlarni o'rganishda chet elda o'qiydigan yoshalarni shu o'qishlarga jalb etib, ularni yo`nalishlarini o'rganish kerak. So'ng, o'z yo`nalishini tanlab ish olib kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Texnologiya va jamiyat. 2017 yil 13 oktyabrda wikipedia.org saytidan olindi
2. Siyosatga texnologik ta'sir. 2017 yil 13 oktyabrda

publicsphere.com saytidan olindi

3. Tojiyev M. Mamadaliev K. Xurramov A. Rivojlangan xorijiy mamalakatlar oliy ta'lim tizimi rivojlanishida kredit sistemasining o'rni va ahamiyati. Oliy ta'lim taraqqiyoti istiqbollari: to'plam 3. Toshkent 2015. 52-b.

4. Usmonov B. SH, Habibullayev P. A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020y. 120 bet.

5. Zamonaviy texnologiyalarning Jamiatga ta'siri. 2017 yil 13 oktyabrdan ukessays.com saytidan olindi